



“TIL VA IMLO MUAMMOLARI”

**mavzusidagi respublika
ilmiy-amaliy anjumani
materiallari**





“TIL VA IMLO MUAMMOLARI”

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani
materiallari**

Toshkent – 2023

Ergoreklamonimlarda garchi mahsulot va xizmatlar haqida to'g'ridan to'g'ri ma'lumot bermasa ham, informativlik xususiyatining kamligi noodatiy original nom va mazmunning o'ziga xos ifodasi orqali ustunlikka ega bo'ladi. Ularda nominatsiyalarning badiiyligi kreollashgan matn tuzilishida aks etadi hamda qo'shimcha assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi.

Ergoreklamonimlar reklama to'g'risidagi qonun hamda himoya qilish vazifasini amalga oshiruvchi mualliflik huquqi bilan bog'liq mulk ham sanaladi. Zamonaviy reklama tilida ergoreklamonimlarning o'rni masalasi amaliy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan sanaladi va monografik tadqiqotlarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Reklama>
2. http://ejournal.khstu.ru/media/2010/TGU_02_07.pdf
3. Козлов Р.И. Эргоурбонимы как новый разряд городской ономастики. Автореф.дисс.канд.филол.наук. – Новосибирск, 2007. – С. 5-6.
4. Бутакова Е.С. Эргонимы иноязычного происхождения в коммуникативном пространстве города. Автореф.дисс.канд.филол.наук. – Томск, 2013; Бондалетов В.Д. Русская ономастика. / Изд.2. дополненное. – М,2012., Ратникова И.Э., Хоанг Тхи Бен. Эргонимы в ономастическом пространстве языка (на материале названий предприятий Минска и Ханоя. //Вестник БДУ. Сер. 4 2016. №1. – С. 56-61.

Metaforaning tilshunoslikda namoyon bo'lishi va ilmiy ahamiyati

Jo'rayeva Bibish,
filologiya fanlari doktori, professor,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o'qitish va malaka oshirish markazi
Buxoro viloyati hududiy bo'linmasi rahbari

Sharipova Ozoda,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
Ozodaxon925@gmail.com

Annotatsiya. Tilshunoslikda metaforaga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Tilda so'zlardan o'rinli foydalanish jarayonida ularning o'z ma'nosi bilan birga majoziy ma'nolarini ham bilish zarurdir. Har bir til foydalanuvchisining so'zlarning atash ma'nosi bilan birga matn tarkibidan anglashinuvchi ko'chma ma'nolaridan ham xabardor bo'lishi nutqini to'g'ri tashkil qilish uchun xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: metafora nazariyasi, metonomiya, o'xshashlik, til birliklari, ko'chim, majoziy ma'no, so'zlardagi uslubiy bo'yoqdorlik.

Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunda bir leksema ma'no ko'chishi asosida bir necha predmetlarni nomlab keladi. Omonimdan farqli ravishda ko'chimda yangi ma'no hosil qiluvchi so'zning o'z va ko'chma ma'nosi o'rtasida muayyan ma'noda bog'liqlik mavjud bo'ladi.

“Metafora” atamasi ilk bor Izokrat tomonidan “Evagorus” asarida qo'llangan. Ko'chimning bu turi ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi har qanday jihatdan o'xshashlikka asoslanadi. Metaforik ma'nolar insonning tashqi ko'rinishiga, jismoniy va ruhiy holatiga, tana a'zolari harakatiga, hayot bosqichlariga, kiyim-kechaklari va ularning qismlariga asosan yuzaga kelishi mumkin.

Ingliz olimi E.Ortoni kundalik hayotda metaforadan foydalanishning quyidagi uch asosiy sababini ko'rsatgan:

1. Ular bizga qisqacha gapirishga yordam beradi.
2. Ular bizning nutqimizni yorqin qiladi.
3. Ular ifodalab bo'lmaydigan narsani ifodalashga imkon beradi [5: 215].

Metaforik modellar millatning ijtimoiy-siyosiy onglik darajasini aniqlash, shunga mos xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Uni o'rganish orqali xalqlarning milliy, mental, madaniy qarashlariga ham baho berish mumkin. Jahon zamonaviy metaforologiya ilmiga katta ta'sir ko'rsatgan olimlardan J.Lakoff va M.Jonsonning “Metaphors we live by” asarida bildirgan ushbu fikrida ham shunga ishora bor: “Metaforalar nafaqat kundalik hayot, til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o'z mohiyatiga ko'ra metaforikdir”. Metafora misolida gnoseologik mohiyat ochiladi, insonning ruhiy dunyosiga aloqador bo'lgan belgi anglatuvchi so'z shakllanadi. Shu boisdan ham unga “ideal mohiyat” sifatida qaraladi.

Turli denotatlarni semantik taqqoslashga imkon yaratib beradigan belgilar va majoziy obrazning mavjudligi metaforaning asosiy xususiyatlaridandir. Matn tarkibigi o'z denotatidan “uzoqlashib” ko'chma – metaforik ma'no anglatayotgan so'zni aniqlash uchun fanda quyidagi usullarga amal qilish tavsiya etiladi[3].

Original (asl) metaforalar va ularning tarjimalarini qiyoslash usuli. Bunday turdagi lingvomadaniy birliklarni qiyoslashda yoki ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda o'sha davr madaniyati, xususan, xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. Masalan, o'zbek paremiologiyasida an'anaviy tarzda “kal” obrazi orqali ifodalangan “ayyorlik” ramzi keyinchalik “tulki” obrazi orqali anglashila boshlandi. “Ushbu holatda tarjimadaasliyatning davr talabiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Hozirgi davrda makkorlik va mug'ombirlik tulki fe'l atvoriga badiiy muqoyasa etilishi an'anaviy tus olgan bo'lsa-da, o'tmish o'zbek adabiyotida, xususan, xalq og'zaki ijodida bu xalq “kal kirdikorlari”ga muqoyasa etilganligini ham inobatga olish zarur” [4: 214-215].

2. Magnit-soha – metaforik bir-biriga intiluvchi metaforalarni parallel ravishda qiyoslash usuli (Ye.Kolotnina, N.Krasilnikova, S.Mishlanova, N.Sansevich, O.Shaova, G. Lakoff va b.).

3. Metaforik ekspansiyaning manba-sohasiga ko'ra birikuvchi metaforalarni parallel qiyoslash usuli.

4. Manba-soha metaforik ekspansiyali metaforalarni qiyoslash usuli.

5. Milliy tildagi metaforik modelning kontrastiv hamda uning o'zga madaniyatdagi ekvivalentini tavsiflash usuli (A.Kaslova, A.Chudinov). Ushbu usul milliy tilning an'ana, madaniyat, milliy ong va dunyoqarash, mentalitet, xalq tarixi bilan chambarchas belgilarini yuzaga chiqarishda ahamiyatga ega.

Metaforik ma'no leksema bosh sememasi tarkibidagi denotativ (atash) va konnotativ (ifoda) semalari nisbatining o'zgarishi asosida sodir bo'ladi. Hosila ma'no esa semema darajasida (lisoniy) bo'lishi ham, semema darajasida bo'lmasligi (nutqiy bo'lishi) ham mumkin. Bunday metaforaning lisoniy tasnifida ilk bo'linish ularning lisoniy va nutqiy ko'rinishlari bilan bog'liq. Nutqiy antroposentrik metaforalar vaqt o'tishi bilan lisoniylashib borishi mumkin.

Shoxista Maxmaraimovanning "O'zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi" dissertatsiyasida ko'chimning bu turi haqida batafsil to'xtalangan:

Mohiyatga taalluqli belgini ajratib ko'rsatish barobarida, metafora gnoseologik maqsadlarga yo'l beruvchi umumiy bilimlarga ishora qiladi, insonning insoniyligini belgilovchi ruhiy dunyosi – "ko'rinmas olami"ga aloqador bo'lgan belgi anglatuvchi leksikaning shakllanishiga xizmat qiladi. Metaforaning "yaratuvchanlik" qobiliyatiga ilmiy uslubda ehtiyoj nihoyat darajada katta bo'lib, ilmiy konsepsiyalarni yangi terminlar bilan atashda muammo tug'ilganida metaforalarga tayaniladi. Metaforik usulda hosil qilingan terminlarning lisoniy iste'moldagi qulayligi, tilda tejamkorlikni yuzaga keltira olishi hamda xotiraga ortiqcha yuklama bermasligi fanda isbotlangan. Metaforik terminlar fikrni ifodalash va ilmiy nazariy bilimlarni kengaytirish uchun zarur. Bu singari terminlar qiyos etilayotgan ikki obyekt o'rtasidagi sifatiy belgilarni mantiqiy aloqadorlikda bog'laydi. Bunda metaforik terminlar negizidagi taqqoslanayotgan obyektlar: shakl, rang, xil-xususiyat, miqdor-hajm va vazifaviy o'xshashlik munosabatiga kirishadi. Metafora lisoniy tizimning alohida olingan birligi emas, yaxlit tizimlarni tashkil qilgan holda lisonning makrotizimlariga daxl qiluvchi tafakkurning lingvomantiqiy hodisasidir.

Afsuski, o'zbek tilshunosligidagi metaforani butundan qismga tamoyilida tekshirishning ko'p yillik tajribasi uni butundan qismga emas, qismdan butunga tamoyili asosida tekshirish zarurligini ko'rsatmoqda. Binobarin, o'zbek tili metaforalarini serqirra yondashuvda tekshirish evaziga umumiy metaforologiya tamoyillarini kashf etish imkoni tug'iladi. Til insonning, eng avvalo, tafakkuriga qaratilgan tarjimondir. Uning ushbu "tarjimonlik" ishida, asosan, ekspressiv-baholovchi konnotatsiyalarni ifoda etuvchi

obrazli metaforalar yuzaga chiqadi. Ushbu jihat metaforaning pragmatik qimmatini oshiradi, uning konseptual hamda nominativ vazifasi negizida ontologik yangi bosqich – keyingi bilish bosqichi uchun dastlabki darajani ifoda etuvchi kategoriyani yuzaga chiqaradi. Metafora olam to'g'risidagi haqqoniy axborotni tashuvchi konseptual hodisa sifatida olamni kategoriyalashda bevosita ishtirok etadi. Binobarin, kategoriya – insonning borliq haqidagi bilimlarini tushunchalar barobarida saqlash shaklidir. Fanda grammatik kategoriya qatoriga metaforiklik kategoriyasi qo'yiladi. Bu – real va noreal, o'zaro muvofiq va nomuvofiq mohiyatlarni birlashtirish san'atidir. Bu sintetik kategoriya lisoniy kategoriyalarning mantiqiy kategoriyalarga mos tushmay qolishi (grammatik-mazmuniy nomuvofiqlik, nutq mantiqiylikning buzilishi)ga doir holatlarni tushuntirishni osonlashtiradi.

Metaforada asosiy ikki jihatni bir-biridan farqlamoq lozim bo'ladi: 1) metafora – bilishning asosiy uch mexanizmlaridan biri (bilish: rasional, empirik va metaforik turlarga bo'linadi); 2) metaforik tafakkur bilishning ma'lum bosqichi.

Matn tarkibida metaforaning ikki turini uchratish mumkin:

1) muallif tomonidan qo'llangan individual metaforalar. Bunday turdagi metaforalar okkazonal xarakterda bo'lib, metaforik ma'no tashiyotga birlikning ma'nosi faqat shu matn tarkibidagina anglashiladi, boshqa matnlarda uchrovchanligi o'ta chegaralangan bo'ladi;

2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) metaforalar. Bunday turdagi metaforalar anglatadigan ma'no til foydalanuvchilarining barchasi uchun tushunarli va keng qo'llanish chastotasiga ega. Tildagi metaforalarni tadqiq etgan tilshunoslarning aksariyati turg'un metaforalarning idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo'lishini, ular ko'p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo'llanishi natijasi sifatida turg'unlashib, so'zlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib qolishini, metaforik etalonining belgi-predmet bilan muntazam va qat'iy bog'liq bo'lishini ta'kidlaydi. Idiomaga beriladigan: "Ma'nosi tarkibidagi lug'aviy birlik yoki birliklarning to'g'ri ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, yaxlit holda umumiy ko'chma ma'no beruvchi so'z yoki so'zlar bog'lanmasi" [2: 20]. ta'rifi ham shunga ishora qiladi.

Inson nutqida metaforalarning tez-tez uchrab turishi mazkur mexanizmning ma'lum bir tizim asosida o'rganilishi kerakligini taqozo etgan. Shuning uchun ham olimlar ularni alohida tizimga birlashtirgan holda tahlil qilib, "metaforik konseptlar" yoki "konseptual metaforalar" deb atashgan.

"Blending nazariyasi" asoschilaridan M. Terner va J. Fokonye kognitiv (konseptual) metaforalarni murakkab dinamik va birlashtiruvchi jarayonni namoyon etuvchi, yangi – qorishiq mental maydonlar yaratilishiga sabab bo'luvchi hodisa sifatida baholaydilar. Kognitiv metaforalarning diskursiv tadqiqi ularning, asosan, publitsistik va siyosiy diskursda alohida modellarni hosil qila olish imkoniyatini isbotlaydi. Bunda metaforik model atamasi: 1) metaforaning o'zini; 2) freym (mavhum tasvirning modeli, obyekt,

hodisa, jarayon mohiyatining eng kichik tavsifi)li tahlilga asoslangan metaforik ifodalarning tizimli konstruksiyasini ifodalaydi.

Kognitiv metafora borasida Durdon Xudoyberganova ham fikr bildirib, undagi zamonaviy metaforologiyaning g'oyalariga uyg'un holda, ularning antroposentrik tabiatiga urg'u beradi. Kognitiv metaforani bilish, tushunchani kategoriyalashtirish, konseptuallashtirish, baholash va olamni tushuntirishning samarali usullaridan biri sifatida baholab, uni shaxs kognitiv faoliyatiga tegishli, bir tushuncha yoki hukm haqidagi bilim tuzilmalari asosida ikkinchi tushuncha yoki hukmni konseptuallashtirish hodisasi sifatida ta'riflaydi [9].

Hozirgi vaqtda esa kognitiv metaforalar nazariyasi ko'plab sohalarga tatbiq qilingan bo'lib, bilish, tushunchani kategoriyalashtirish, konseptuallashtirish, baholash va olamni tushuntirishning samarali usullaridan biri bo'lib kelmoqda. Shuningdek, kognitiv metaforalar har bir millat vakilining tafakkuri mahsuli bo'lganligi sababli unda o'sha xalqning lingvomadaniy merosi yoxud izlari ham yashiringan bo'ladi. Ya'ni har bir konseptual metaforani hosil qiluvchi konseptlarda til va madaniyat uyg'unligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Konseptual (kognitiv) metafora nazariyasi asoschilari J.Lakoff, M.Jonson va yana bir qator amerikalik olimlar metaforalarni uch guruhga ajratishgan: oriyentatsion metafora, ontologik metafora va strukturaviy metafora.

Oriyentatsion metaforalar insonlarning fikr mulohazalaridagi tasviriy ifodalar ma'lum bir joy yoki yo'nalishga ishora berilishini anglatadi. Masalan, *boshi osmonga yetdi, boshi ko'kdakabi*.

Ontologik metaforalar mavhumlikning mavjudlikka aylanishini ta'minlovchi konseptual metafora turi: *Vaqting – naqding*.

Strukturaviy metaforalar inson tafakkurida mavjud murakkab tizimli tushuncha orqali boshqa bir so'z mohiyati shakllanishini anglash usuli. Masalan, *Umr – sinov*.

Shu o'rinda metafora va o'xshatishning bir-biridan farqi haqida ham to'xtalib o'tish zarur. Metaforaning yuqorida keltirganimiz xosliklaridan farqli ravishda o'xshatishda o'xshatiladigan narsa yoki subyekt, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi – vositasi kabi to'rt unsur bo'lishi talab etiladi. Masalan:

Tog'lardagi qip-qizil lola,
Bo'lib guyo yoqut piyola.
Buloqlardan uzatadi suv,
El ko'zidan qochadi uyqu.

H.Olimjon

Bunda o'xshatish subyekti – *lola*, o'xshatish etaloni – *piyola*, o'xshatish asosi – *yoqut*, o'xshatish vositasi – *go'yo*. O'xshatishda chog'ishtiriladigan narsa ham asosan uning to'g'ri ma'nosida qoladi. Adabiyotshunoslik terminologiyasi doirasida

nomlaydigan bo'lsak, metafora istiora san'atini, o'xshatish esa tashbeh san'atini hosil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, metafora har bir xalqning mentalligini, milliy ongini, badiiy tasvir vositasini, folklori, diniy-dunyoviy tafakkur tarzini o'zida yaqqol namoyon qiluvchi birlikdir. Insonning uzoq yillik hayot tajribasi, milliy-madaniy qadriyatlari, tarixiy kechinmalari hamda geografik joylashuvi metaforalarning shakllanishida muhim omil vazifasini o'taydi. Metaforaga kognitiv yondashuv ularni inson tafakkuri va bilish faoliyatining mahsuli, uni konseptual ifodalovchi konstruksiyalar sifatida ko'rish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov X. O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlarining sintaktik xususiyatlari bo'yicha kuzatishlar. – T.: Fan, 1971.

2. Jo'rayeva B.M. O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: Filol.fan.dok. ...dis. – Samarqand, 2019. - 20 b.

3. Maxmaraimova Sh. O'zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi: Filologiya fanlari doktori (Dcs) diss. avtoref. – Самарқанд, 2020.

4. Musayev K. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. – T.:Fan, 2005. - B. 214.

5. Ortoni E. Assimilyatsiya va metaforada o'xshashlikning roli // Metafora nazariyasi / Otv. ed. N.D. Arutyunov. – M.: Progress, 1990. – B. 215 b.

6. Xo'jamqulov A. O'zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20yilligiga bag'ishlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to'plami. Lingvist. 2-kitob. – T.: Akademya nashr, 2011. – B. 85–88.

7. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – T.: Fan, 2013.

8. Хожнев А.П. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 163 б.

XX asr boshlarida o'zbek jamiyatida til va imlo muammolari

Ermatov Ixtiyor,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent,

Guliston davlat universiteti,

ermatov_7070@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'tgan asrning boshlarida til va imlo muammolarini isloh qilinishi, lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga o'tilishi, unda jadidchilarning sa'y-harakatlari, yozuvimizning qatag'on qilinishi, krill alifbosiga o'tilishi hamda qo'shalifbolikning oqibatlarini haqidagi masalalar yuzasidan fikr yuritiladi; imlo qoidalarining ishlab chiqilishi hamda darslik-saboqliklarda tutgan o'rniga baho beriladi.

MUNDARLIJA	
So'zboshi Azimov Inomjon	4
Nomlarni to'g'ri yozish – savodxonlikning bosh mezonini Sobirov Abdulhay	5
Ona tilini tiniqlashtirish – hammamizning burchimiz Sobirov Abdulhay, Azimov Inomjon	9
Alifbo va imlo muammolariga doir Baxtiyor Mengliyev	14
Lotin alifbosi asosida tuzilgan o'zbek alifbolari xususida Azimov Inomjon	16
Tilimiz – ruhimiz Nabiyeva Dilora	22
Rasmiy uslubning o'rganilishi tarixi xususida Abdiyev Murodqosim	24
Ergonimlarning hosil bo'lishida reklamaning o'rni Saparniyazova Muyassar	30
Metaforaning tilshunoslikda namoyon bo'lishi va ilmiy ahamiyati Jo'rayeva Bibish, Sharipova Ozoda	33
XX asr boshlarida o'zbek jamiyatida til va imlo muammolari Ermator Ixtiyor	38
Bolalarga xos matnlarning tavsifi va tasnifi Murodova Nigora, Yarashova Nasiba	47
Xalq eposining badiiy tili Bahodir Rahmonov	53
Kompetentlik va pragmatika Rahimov Usmonjon	56
Lingvistik ekspertiza obyekti va aspektlari Bobojonov Farhod	61
Davlat tiliga amal qilish: mulohaza va takliflar Muzaffar Mamatqulov, Obidaxon Fayzullayeva	65
Sinonimik paradigmaning pragmatik tadqiqi Rahimov Usmonjon	70
O'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda essening o'rni Suyunov Husniddin, Sodiqova Nasiba	77
Til bor – millat yashaydi Ermator Ixtiyor	82
Ish qog'ozlari uslubida olmoshlarning qo'llanishi Sadinova Nafisa	86
Badiiy asarda til va uslub masalasi To'rayeva Dilnoza	89